

RAUF (RUVIM) NEMIROVSKIY YARATGAN “FARHOD” HAYKALINING BADIY-KOMPOZITSION TAHLILI

O‘zbekiston zamonaviy san’ati muzeyi katta ilmiy xodimi

Ibodullayev Mansurbek Saburjon o‘g‘li

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston zamonaviy san’ati muzeyi fondida saqlanayotgan Rauf (Ruvim) Nemirovskiy yaratgan “**Farhod**” haykalining badiiy-kompozitsion xususiyatlari hamda Alisher Navoiy qahramoni obrazining haykaltaroshlikdagi talqini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Farhod, Alisher Navoiy, haykaltaroshlik, kompozitsiya, badiiy tahlil, monumental san’at.

Аннотация

В статье анализируются художественно-композиционные особенности скульптуры «**Фархад**», созданной Рауфом (Рувимом) Немировским и хранящейся в фондах Государственного музея современного искусства Узбекистана, а также рассматривается скульптурная интерпретация образа Фархада из произведения Алишера Навои.

Ключевые слова: Фархад, Алишер Навои, скульптура, композиция, художественный анализ, монументальное искусство.

Abstract

This article examines the artistic and compositional features of the sculpture “**Farhod**” by Rauf (Ruvim) Nemirovsky, preserved in the collection of the State Museum of Contemporary Art of Uzbekistan, and analyzes the sculptural interpretation of Farhod, the protagonist of Alisher Navoi's epic.

Keywords: Farhod, Alisher Navoi, sculpture, composition, artistic analysis, monumental art.

Bugungi kunda mamlakatimizda tasviriy san'atning barcha yo'nalishlari qatori haykaltaroshlik san'ati ham izchil rivojlanib bormoqda. Haykaltaroshlik nafaqat tasviriy san'atning muhim turlaridan biri, balki tarix, adabiyot, madaniyat, falsafa va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijodiy yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy va badiiy obrazlarni haykaltaroshlik vositasida talqin etish milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ajdodlar merosini keng targ'ib qilish hamda yosh avlodning estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Haykaltarosh uchun asarning tashqi qiyofasini yaratishning o'zi kifoya emas. Har bir obrazning ichki ruhiyati, xarakteri, badiiy-falsafiy mazmuni va g'oyaviy mohiyatini chuqur his etgan holda uni plastik shakllarda ifodalash haqiqiy san'atkorning mahoratini namoyon etadi. Shu sababli monumental haykaltaroshlikda yaratilgan har bir asar nafaqat estetik, balki ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

O'zbekiston haykaltaroshlik maktabining ana shunday yetuk namoyandalaridan biri Rauf (Ruvim) Nemirovskiy bo'lib, u o'z ijodida tarixiy shaxslar va adabiy qahramonlarning badiiy talqiniga alohida e'tibor qaratgan. Haykaltarosh yaratgan asarlar orasida Alisher Navoiy dostonidagi bosh qahramon timsoliga bag'ishlangan "Farhod" haykali alohida o'rin tutadi. Mazkur asarda qahramonning kuch-qudrati, matonati, mehnatsevarligi va yuksak ma'naviy fazilatlari haykaltaroshlik san'atining ifoda vositalari orqali yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan.



Rauf (Ruvim) Nemirovskiy (1937–2019) XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston tasviriy san'ati va monumental haykaltaroshligi ¹rivojiga munosib hissa qo'shgan iste'dodli haykaltarosh hisoblanadi. U 1937-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1952–1957-yillarda O'zbekiston rassomlik bilim yurtida tahsil olgan. So'ngra ijodiy faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)

¹ **Monumental haykaltaroshlik** — me'morlik va shaharsozlik bilan uzviy bog'liq bo'lgan san'at turi. O'z ko'rinishiga ko'ra dumaloq (mukammal) va relyef turlariga bo'linadi.

shahrida tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim olib, 1961-yilda aspirantura bosqichini tamomlagan.

O'qishni tugatgach, Nemirovskiy Toshkentda monumental va dastgoh haykaltaroshligi sohasida samarali ijod qildi. U qisqa vaqt ichida o'zining yuksak kasbiy mahorati bilan tanilib, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ko'plab monumental loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etdi. Zamondoshlari uni mehnatsevar, serg'ayrat, ijodkor va hayotni sevuvchi inson sifatida e'tirof etganlar. Haykaltarosh Aleksandr Volkov o'z xotiralarida Nemirovskiyning murakkab ijodiy masalalarni sodda va amaliy yechimlar orqali hal eta oladigan, yosh haykaltaroshlarga ustozlik qilgan mohir san'atkor sifatida ta'riflaydi.

Rauf Nemirovskiyning ijodida monumental haykaltaroshlik alohida o'rin egallaydi. U yaratgan yirik hajmli haykallar O'zbekistonning ko'plab shaharlarida o'rnatilgan. Uning eng mashhur asarlaridan biri Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni qahramoni sharafiga yaratilgan ulkan "Farhod" monument²idir (1-rasm). Chorvoq suv ombori to'g'oni yaqinida qad rostlagan ushbu haykal xalq qahramoni Farhodning jasorati, mehnatsevarligi va fidoyiligini ulug'laydi. Mazkur asar haykaltarosh ijodining eng muhim namunalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Haykaltaroshning yana bir muhim asari buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy haykalidir. Ushbu monument haykaltarosh A. Rahmatullayev bilan hammualliflikda yaratilgan bo'lib, O'zbekiston ilm-fani tarixida muhim o'rin tutgan buyuk olim xotirasini abadiylashtirishga xizmat qiladi.

Nemirovskiy nafaqat haykaltarosh, balki pedagog sifatida ham faoliyat yuritgan. U O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida o'n yildan ortiq vaqt davomida talabalarga haykaltaroshlik san'atidan saboq bergan va ko'plab yosh ijodkorlarning shakllanishiga hissa qo'shgan. Uning shogirdlari bugungi kunda ham ustozini chuqur hurmat bilan eslaydilar.

1990-yilda Rauf Nemirovskiy oilasi bilan Avstraliyaga ko'chib o'tdi va 1992-yilda Avstraliya fuqaroligini oldi. U umrining oxirigacha ijod bilan shug'ullanib,

² **Monument** (lotincha monumentum -yodgorlik) -yirik tarixiy voqea, buyuk jamoat arbobi va boshqa sharafiga bunyod etilgan yirik hajmdagi yodgorlik, haykal.

haykaltaroshlik va rangtasvir sohalarida faoliyat olib bordi. Uning asarlari O‘zbekiston, Rossiya, Yevropa, Osiyo, Amerika va Avstraliyadagi muzeylar hamda shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda. 2019-yilda Avstraliyada vafot etdi.

Rauf (Ruvim) Nemirovskiy o‘zining monumental kompozitsiyalari, obrazlarning ruhiy holatini chuqur ochib bera olishi va milliy tarix hamda adabiy qahramonlarni zamonaviy badiiy talqinda ifodalashi bilan O‘zbekiston haykaltaroshlik maktabining yorqin namoyandalaridan biri sifatida san’at tarixida munosib o‘rin egallaydi. Uning ijodi bugungi kunda ham haykaltaroshlik san’atini o‘rganuvchi tadqiqotchilar va san’atshunoslar uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.



1-rasm

Tarixiy yoki adabiy obrazni yaratishga kirishayotgan har bir haykaltarosh va rangtasvirchi, avvalo, o‘sha shaxs yoki qahramonga oid tarixiy manbalar, qo‘lyozmalar, ilmiy tadqiqotlar hamda undan avval yaratilgan badiiy asarlarni o‘rganishi zarur. Chunki obrazning tashqi qiyofasi bilan bir qatorda uning ruhiy olami, xarakteri va g‘oyaviy mohiyatini chuqur anglamasdan turib mukammal badiiy asar yaratish mushkul. Shu bois Rauf (Ruvim) Nemirovskiyning “Farhod” haykalini tahlil qilishdan oldin Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni, undagi Farhod obrazi hamda qahramonning badiiy tavsifini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Aynan shundan keyingina haykaltaroshning ushbu obrazni plastik san’at vositalari orqali qanday talqin etganini ilmiy asosda baholash mumkin bo‘ladi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” asari o‘zbek adabiyotining eng yirik va eng mashhur epik asarlaridan biridir. Ushbu asar, o‘zining go‘zal tilidagi she’rlari, insoniy his-tuyg‘ularni o‘zida aks ettirgan romantik syujeti bilan tanilgan. Bu asar Navoiy tomonidan XV asrda yozilgan va o‘sha davrning poetik merosi sifatida muhim ahamiyatga ega. “Farhod va Shirin” – bu sevgi, sadoqat, kurash va tasavvufiy o‘g‘itlar bilan to‘la bir doston. Asarda Farhod va Shirin o‘rtasidagi sevgi hikoyasi asosiy syujetni tashkil etadi. Farhod, kuchli va jasur yigit, Shirin esa go‘zal va aqlli bir ayol. Ular o‘rtasidagi sevgi, to‘siqlar va qarshiliklarga qaramay, asar davomida nafaqat ikkinchi darajali rollarda bo‘lgan shaxslar bilan, balki tabiat va insoniyat bilan ham sinovlardan o‘tadi. Asar o‘zining she’riy shakli bilan ajralib turadi va butunlay hikoya shaklida yozilgan. Farhod, Shirin uchun o‘z jonini, ba’zan esa barcha orzularini qurbon qiladi. Shu bilan birga, asarda tasvirlangan tasavvufiy³ elementlar, insonning qalbi, ezgulikka intilishi, shaxsiy kuch va jasorat kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Asarda ko‘rsatilgan insonning ichki kurashlari, uning maqsadga erishish yo‘lidagi mashaqqatlari, shuningdek, insoniyatning ideal yuksalishiga bo‘lgan intilishi, unga o‘quvchi yoki tinglovchi nuqtai nazaridan qaraganda kattaroq tasavvurlarni ochib beradi.

Farhod va Shirin haqidagi qissa nihoyatda qadimiy bo‘lib, u O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlari orasida ancha keng tarqalgan. U yozma adabiyotga kirib kelmasdan burun ham ko‘p variantlarda xalq og‘zaki ijodidan o‘rin olgan edi. Bu qissaning markazida mehnat kishisi Farhod turgan, lekin u zolim podshoh Xusravning zulmi va makkorligi orqasida o‘zining qahramonona mehnati tufayli ham o‘z sevgilisi Shiringa yetisha olmagan va fojiali ravishda o‘ldirilgan, ayniqsa mehnatkash aholining orasida uni ommalashtirib yuborgan.

Shu vaqtgacha o‘rganilgan manbalar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, haykaltarosh Rauf (Ruvim) Nemirovskiy “Farhod” (2-rasm) obraziga katta e’tibor va mehr bilan yondashgan. U nafaqat haykalning tashqi qiyofasini yaratishga, balki qahramonning ichki ruhiy olami, xarakteri va badiiy mohiyatini chuqur o‘rganishga intilgan. Buni

³ Tasavvuf ([arabcha](#): التصوف), **sufiylik** — [islomda](#) insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi [ta’limot](#).

haykaltaroshning Farhod obrazini turli kompozitsion⁴ yechimlarda va turli badiiy talqinlarda tasvirlaganidan ham anglash mumkin. Chunki bir obrazni takrorlamasdan, har safar yangi badiiy yechim topish, uning ruhiy holatini plastik san'at vositalari orqali ifodalash katta ijodiy izlanish va yuksak mahoratni talab etadi.

Mazkur asarda Farhod obrazi Alisher Navoiy dostonidagi qahramonning jasorati va fidoyiligini ifodalovchi eng muhim lavhalardan biri asosida tasvirlangan. Haykalda Farhod o'z sevgilisi Shirin yo'lida tog'ni teshib, xalq manfaatini ko'zlagan holda mehnat qilayotgan paytda gavdalantirilgan. Qahramonning kuchli jismoniy qudrati, qat'iyati va mashaqqatli mehnati plastik yechimlar orqali ta'sirchan ifodalangan.a



2-rasm

Kompozitsiyaning markazida gavdasi baquvvat, mushaklari aniq ishlangan Farhod obrazi joylashtirilgan. U ikki qo'li bilan ulkan qoyalarni ikki tomonga surib yuborayotgandek tasvirlangan. Chap va o'ng tomonda joylashgan parchalangan qoyalar qahramonning g'ayrioddiy jismoniy kuchini ifodalash bilan birga, uning oldidagi mashaqqatli sinovlarni ham ramziy tarzda aks ettiradi. Qoyalar orasida hosil bo'lgan bo'shliq esa Farhodning mehnati natijasida ochilgan yo'l timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin.

⁴ **Kompozitsiya** ([lotincha](#): *compositio* — tuzilish, birlashish, bog'lanish) — badiiy asarning mazmunan, xarakteri va maqsadi jihatidan bog'langan qismlarining joylashishi.

Haykaltarosh anatomik tuzilishga alohida e'tibor qaratgan. Qahramonning tarang mushaklari, keskin harakatdagi qo'l va oyoqlari, gavdaning oldinga intilishi hamda boshning yon tomonga burilishi asarga kuchli dinamika bag'ishlaydi. Bularning barchasi Farhodning jismoniy qudrati bilan bir qatorda uning qat'iyati, jasorati va maqsad sari intilishini ham ifodalaydi.

Asarda qo'llanilgan bronza (mis qotishmasi) materiali obrazning monumentalligini kuchaytirib, yorug'-soya o'yini hamda plastik ifodaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Material yuzasidagi yorug'-soya o'yini mushaklarning hajmiyligini, qoyalar sirtidagi notekis faktura esa tog' jinslarining tabiiy ko'rinishini yanada ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Farhodning jasurligi, mehnatda chiniqqan jismoniy qudrati hamda sevgisi yo'lida tog'larni ham teshib o'tishga tayyor bo'lgan qahramonlik fazilatlari ijodkor tomonidan badiiy jihatdan muvaffaqiyatli va ishonarli tasvirlangan. Haykaltarosh har qanday obrazni yaratishda nafaqat badiiy asarlardan, balki hayotning o'zidan ham ilhom oladi. U yaratmoqchi bo'lgan obrazga xos insoniy fazilatlarni kuzatadi, turli odamlarning tashqi qiyofasi, tana tuzilishi, mushaklari, yuz ifodasi, soch tuzilishi hamda xarakter va ruhiy holatini chuqur tahlil qiladi. Haykaltarosh uchun plastika bilan bir qatorda obrazning ichki dunyosi va psixologik qiyofasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mukammal badiiy obrazni yaratish ko'pincha uzoq yillar davom etadigan izlanishlarni talab qiladi. Ba'zan haykaltarosh o'n yillab izlanib, yuzlab insonlarning alohida xususiyatlarini umumlashtirgan holda yagona obrazni shakllantiradi. Masalan, jasur va qo'rqmas qahramon obrazini yaratishda u zaif yoki irodasiz insonlardan emas, balki matonatli, qat'iyatli va mard kishilarning tashqi va ichki fazilatlaridan ilhom oladi. Ana shunday kuzatuvlar va ijodiy izlanishlar natijasida tomoshabinda ishonch uyg'otadigan, badiiy jihatdan mukammal haykal obrazi vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эркинов С. Навоий «Фарход ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 1971. – 276 б.

2. Alisher Navoiy. **Farhod va Shirin**. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
3. Бойметов Б.Б. *Ҳайкалтарошлик ва пластик анатомия*. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2007.
4. Куролова Х. *Ҳайкалтарошлик*. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2007.
5. **Wikipedia**. *Farhod va Shirin*.

Elektron manbalar.

6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Farhod_va_Shirin
7. <https://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/alisher-navoiy/farhod-va-shirin/#gsc.tab=0>
8. <https://mytashkent.uz/2019/09/29/ruvim-nemirovskij/>
9. <https://xn--80alhdjhdcxhy5hl.xn--p1ai/avtor/nemirovskiy-ruvim>